



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

<sup>1</sup>Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich.,

<sup>2</sup>Toshboltayeva Umida Sobirovna

<sup>1</sup>O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, pedagogika kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi e-mail: fma@rambler.ru, Tel.:+998979180612

<sup>2</sup>O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) 2-kurs magistranti e-mail: umidasobirovna0604@gmail.com

## FINLANDIYA TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOSLIGI VA TA'LIM TIZIMIDA TOLERANTLIKNING TUTGAN O'RNI

**Annotatsiya:** Maqolada Finlyandiya ta'lim tizimining azalliklari, o'ziga xos o'rni, ta'lim tizimining yutuqli tomonlari, rivojlangan mamlakatning ta'lim tizimidagi tolerantlik ahamiyati va davlat miqyosida tutgan o'rni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, PISA tizimi, savodxonlik, tolerantlik, tamoyil, adolat, bag'rikenglik.

**Аннотация:** В статье описывается история финской системы образования, ее уникальная роль, успешные аспекты системы образования, значение толерантности в системе образования развитой страны и ее роль на государственном уровне.

**Ключевые слова:** образование, система PISA, грамотность, толерантность, принцип, справедливость, толерантность.

**Abstract:** The article describes the history of the Finnish education system, its unique role, the successful aspects of the education system, the importance of tolerance in the education system of a developed country, and its role at the state level.

**Key words:** education, PISA system, literacy, tolerance, principle, justice, tolerance.

### KIRISH.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda Finlandiyadagi ta'lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizim ekanligi va mazkur tizimning bunday maqomga erishishda yordam beradigan g'oyalar qanday ishlayotgani har bir davlatda katta qiziqishlar uyg'otmoqda va bu matbuotda ham ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan mavzulardan biridir.

Finlandiya maktablarida ta'lim tizimi yuqori darajada rivojlangan va katta yutuqlarga erishgan. Ta'lim tizimidagi islohotlar har bir davlat uchun muhimdir va har bir davlat bunga jiddiy e'tibor qaratadi. Bizning Milliy ta'lim tizimimiz ham bundan mutasno emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ijobiy tajribasini mamlakatimiz ta'lim tizimiga hamda Milliy o'quv dasturiga joriy qilish vazifasi belgilangan edi.

Finlyandiya ta'limining asosiy maqsadi — ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha bolalar uchun sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, ularni jamiyatning faol fuqarolari sifatida voyaga yetkazish va mustaqil hayotga tayyorlashdan iboratdir.

Helsinki universitetidan Simolaning yozishicha, mamlakat ta'lim tizimida 1970-yillardagi islohotning asosiy o'ziga xosliklaridan biri maktablarni «kuchli» va «oddiy»lariga ajratishdan voz kechib, **hamma uchun bir xil umumta'lim maktablarining joriy etilishi** Finlyandiya maktab ta'limining asosiy xususiyatlaridan biri ekanini qayd etib o'tgan[4].

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Bugungi kunda juda ko'plab davlatlarning Finlandiya ta'limiga katta qiziqish bildirayotganligi bejizga emas. Ushbu mamlakat ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Fin o'quvchilari PISA tadqiqotidagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan.

(PISA - *The Programme for International Student Assessment*) Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturining o'ziga xos xususiyati shundaki, u sof bilimni emas, balki turli sohalarda savodxonlikni baholaydi. PISA dasturi 2000-yilda tashkil etilgandan buyon Finlyandiya unda muntazam qatnashib kelmoqda va erishgan natijalari bilan fin ta'lim tizimi dunyodagi ko'plab mamlakatlarning e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Finlyandiya ta'lim tizimi PISA tadqiqotlari natijalari bo'yicha uzoq davrda eng yaxshi natijalarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi.

Finlandiyada maktab darslari fin yoki shved tillarida o'tiladi. Davlat maktablari bilan birgalikda xususiy maktablar ham o'z faoliyatini olib boradi. Finlyandiya ta'lim yuqori darajada. Maktablar o'rtasidagi ta'lim natijalaridagi farqlar unchalik katta emas va deyarli har bir kishi asosiy ta'limni belgilangan vaqt ichida tugatadi. Maktabgacha ta'lim, asosiy ta'lim va o'rta ta'lim bepul, qo'shimcha ta'lim ham asosan bepul. Bundan ko'zlangan maqsad, oila daromadidan qat'i nazar, har bir inson sifatli ta'lim olish, faol fuqaro sifatida kamol topish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Finlandiya qonuniga binoan,

davlatda yagona umumiy ta'lim tizimi hukum suradi. Finlandiya ta'limidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri Finlandiya ta'limi o'rta bosqichining 7 tamoyilidir. Bular:

1. Tenglik tamoyili. Har bir o'quvchining huquqlari himoya qilinib bir o'quvchidan birini ustun qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

2. Bepul ta'lim. O'qishning o'zidan tashqari tushlik, ekskursiyalar, transport, darsliklar va barcha o'quv qurollari bepuldir.

3. Individuallik. Har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi.

4. Amaliyot. Fin maktablarida hayotda kerak bo'ladigan bilimlar beriladi. Ta'limda "Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki – imtixonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz" shiori qo'llanildi.

5. Ishonch. Har bir pedagog o'zi to'g'ri deb bilgan uslubni qo'llaydi. Davlat tomonidan kuchli ishonch bildirilib, o'qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo'q.

6. Istak-xohish. O'qishni xohlamagan o'quvchi majburlanmaydi, aksincha, uni qiziqishiga ko'ra yo'naltiriladi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarish kerak-ku, axir!

7. Mustaqillik. Maktablarda eng asosiysi – bolani muvaffaqiyatli hayotga o'rgatish kerak. Shu bois bu yerda fikr yuritish va o'z xohishiga ko'ra bilim olishga o'rgatiladi.

Finlyandiya ta'lim tizimidagi islohotlarning yana bir muhim jihatini — 1970-yillardan boshlab boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash kollej va seminariyalardan **universitetlarning qayta tashkil etilgan ta'lim fakultetlariga** ko'chirilgan, shuningdek, **maktab o'qituvchilari magistr darajasiga ega bo'lishi shartligi** belgilab qo'yilgan. Hozir boshlang'ich maktabda dars berish uchun o'qituvchi ta'lim sohasida magistr darajasiga, o'rta maktabda dars berish uchun esa dars berayotgan fani bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lishi lozim.

Tadqiqotlarga ko'ra, Finlyandiya o'qishga kirish uchun **tanlov eng katta** bo'ladigan yo'nalishlardan biri pedagogikadir. Masalan, so'nggi yillarda boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash fakultetlaridagi o'rtacha 900 ta o'ringa 7000 ga yaqin abituriyent da'vogarlik qilgan. Ish haqi boshqa sohalarga nisbatan kamroq ekaniga (masalan, boshlang'ich maktab o'qituvchisi magistr darajasiga ega boshqa mutaxassislariga qaraganda 22 foiz kamroq, o'rta maktabning birinchi bosqich o'qituvchisi esa 15 foiz kamroq maosh oladi) va stress darajasi o'sib borayotganiga qaramay, ko'plab o'qituvchilar o'z ishidan qoniqish va sadoqat his qiladi: o'qituvchilarning faqat 10–15 foizigina faoliyati davomida sohasini o'zgartiradi. Shuningdek, o'qituvchilarga nisbatan ota-onalar tomonidan **ishonch va hurmatning yuqori ekanini** ham alohida qayd etib o'tilgan[2].

Finlandiya ta'lim tizimida tolerantlikning bosh g'oyasini tenglik tamoyilida ko'rishimiz mumkin. Maktablardagi barcha sharoitlarning bir xilligi va bir fan boshqasidan chuqurroq o'rgatilmashligi, o'quvchilar ota-onasining kim bo'lib ishlashi oxirgi o'rin bo'lib, ularning ish joyiga doir savollar berish taqiqlangan. Bundan tashqari, finlandiyada "yaxshi" va "yomon" o'quvchi yo'q. Ularni taqqoslash umuman mumkin emas. Hattoki jamoada nogironligi bo'lgan bolalar ham tahsil oladi. Fin maktablari nafaqat bu jarayonda tolerantlikni balki, ijtimoiylashishni ham yuksaltiradi. O'qituvchilarning "sevimli" o'quvchilari bo'lmaydi va buni buzgan o'qituvchi mehnat shartnomasini buzgan bo'ladi. **Katta yoshli kishilar (o'qituvchilar, ota-onalar) va bolalar huquqlari tengligi mavjud bo'lib**, finlar bu tamoyilni "o'quvchiga hurmat" deb atashadi. Bolalarga 1-sinfdan ularning huquqlari tushuntirilib boriladi. Umuman Finlandiyada har bir inson alohida bir shaxsdir. Buni barcha birdek qabul qiladi va hurmat qiladi.

### **Natijalar.**

*Tadqiqotlarga ko'ra Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xosliklari:*

Darslar ertalabki 9:00 — 9:45 dan boshlanadi va har bir dars oralig'idagi tanaffus 15 daqiqadan.

Barcha o'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishlari shart.

O'qituvchilar faoliyati baholanmaydi va hech qanday tekshiruvlardan o'tkazilmaydi. O'quvchilar akademik natijalarini baholash faqatgina 6 va 9-sinfni tamomlayotgan vaqtda amalga oshiriladi.

O'quv dasturlarini ishlab chiqishning nomarkazlashtirilgan tizimi: maktablar ta'lim jarayonida davlat tomonidan majburiy ta'lim uchun tasdiqlangan muayyan fanlarning barchasi, ayrimlari yoki o'z ixtiyoriga ko'ra fundamental ta'limga mos boshqa fanlarni o'qitish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilishlari mumkin.

Diniy ta'limni o'z ichiga oladi.

Standartlashtirilgan testlar va maktablar faoliyati inspeksiyasi tizimi mavjud emas, maktablar reytingi yuritilmaydi.

Muayyan fanlarni chuqurlashtirib o'qitish yoki muayyan fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi, alohida imtiyoz va nufuzga ega bo'lgan maktablar mavjud emas, deyarli barcha maktablar davlat maktablari hisoblanadi.

Maktabdan tashqari uy vazifalari juda kam beriladi.

### **Muhokama.**

Finlyandiya ta'limining muhim maqsadlaridan biri talabalarning mustaqil fikrlashni o'rganishi va o'z bilimlari uchun mas'uliyatli bo'lishidir. Ajablanarli tomoni maktablarda yaxshi kayfiyat haftaliklari o'tkazilib turishidir. Finlandiyada bolalar maktabda o'z dinida ta'lim olish huquqiga ega. Finlyandiya din erkinligi mavjud. 18

yoshdan oshgan, qonuniy yoshga to'lgan shaxs o'z dinini tanlashi mumkin. Finlandiya aholisi farqli til, madaniyat yoki dinga ega bo'lgan turli aholi vakillarini o'z ichiga oladi. Bu yerda Estoniya, Rossiya, Iroq, Xitoy va Hindiston kabi davlatlardan ko'chib kelganlar ham mavjud.

Mamlakatda "Tenglik to'g'risida"gi qonunga ko'ra, shaxs yoshi, etnik kelib chiqishi, millati, tili, e'tiqodi, fikri, g'oyasi, siyosiy faoliyati, kasaba uyushmasi va kasbiy faoliyati, oilaviy munosabatlari, sog'lig'i, nogironligi bo'yicha kamsitilishi mumkin emas.

Finlyandiya yashovchi har bir kishi huquq va majburiyatlarga ega. Quyidagi huquq va majburiyatlar Finlyandiya yashovchi chet elliklarga ham tegishli.

- Har kimga teng munosabatda bo'lish huquqi bor. Hech kim, masalan, jinsi, yoshi, dini yoki nogironligi tufayli boshqacha munosabatda bo'lishi mumkin emas.
- Har kim o'z fikrini erkin bayon qilishi va yozishi mumkin.
- Odamlar yig'ilish va mitinglar tashkil qilishi va qatnashishi mumkin. Miting tashkil qilishdan oldin politsiyani oldindan xabardor qilish kerak.
- Hech kim o'limga hukm qilinishi mumkin emas va hech kim qiynoqqa solinmaydi.
- Har kim o'zi yashash joyini tanlashi va Finlyandiya erkin harakatlanishi mumkin.
- Har bir inson shaxsiy hayotini himoya qilish huquqiga ega. Boshqa birovning xatlarini o'qimaslik va birovning telefon suhbatini tinglash mumkin emas.
- Har kim o'z dinini tanlashi mumkin. Agar xohlamasangiz, biron bir dini tanlash majburiyati yo'q.

Agar siz Finlyandiya fuqarosi bo'lmasangiz ham, ba'zi saylovlarda ovoz berish huquqiga ega bo'lishingiz mumkin.

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xosliklari diqqatga sazovordir. Finlandiya ta'limida eng avvalo, bolada tanqidiy tafakkur juda yaxshi rivojlantiriladi. Majburlash, taqqoslashlar bo'lmasa ham bola bilimlarni hayoti uchun zarurligini anglab yetadi. Nafaqat ta'lim tizimida balki, butun davlatda tolerantlik g'oyalarini yaqqol sezish mumkin. Ta'lim tizimida tenglik tamoyili bag'rikenglik g'oyalarini aks ettirsa, butun davlat uchun davlat konstitutsiyasi va "Tenglik to'g'risida"gi qonun barcha uchun birdek faoliyat olib boradi. Finlyandiya bag'rikenglikning yana bir ko'rinishi chet eldan kelgan insonlar uchun qo'shimcha yordamlar berilishi va ular uchun ham qonunlarning bir xil ishlashidir.



**Adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
2. Sh. Ibragimov. “Finlandiya va O‘zbekistonda ta’lim tizimini sifatini solishtirma tahlili”. – Miasto Przyszłości Kielce 2022-y.
3. Timoti Uoker, “Finlandiya ta’lim mo‘jizasi”: Maroqli dars o‘tishning 33 siri. – T. “Global books”. 2023.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Finlandiya>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/08/finland-education/>
6. <https://kun.uz/news/2018/08/13/ukuvci-va-ukituvci-orzusi-finlandia-talim-tizimi>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/28/fin-education/>
8. <https://www.infofinland.fi/tr/information-about-finland/cultures-and-religions-in-finland>
9. <https://www.infofinland.fi/tr/information-about-finland>
10. Shadiev R. et al. Correction to: Familiarization Strategies to Facilitate Mobile-Assisted Language Learning in Unfamiliar Learning Environments: A Study of Strategies Development and Their Validation //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – C. C1-C1.
11. Lutfullaev M. X., Fayziev M. A., Lutfullaeva F. Pedagogical bases of use of multimedia electronic educational literature in educational process //New pedagogical and information technologies in continuing education. Samarkand. – 2003.
12. Shadiev R. et al. Impact of Speech-Enabled Language Translation Application on Perceived Learning Emotions in Lectures in English as a Medium of Instruction //Innovative Technologies and Learning: Second International Conference, ICITL 2019, Tromsø, Norway, December 2–5, 2019, Proceedings 2. – Springer International Publishing, 2019. – C. 809-814.
13. Shadiev R. et al. Familiarization Strategies to Facilitate Mobile-Assisted Language Learning in Unfamiliar Learning Environments: A Study of Strategies Development and Their Validation //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – C. 213-217.